

YALPI HUDUDIY MAHSULOT



Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2019 yil yanvar-martida Buxoro viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda YaHM) hajmi joriy narxlarda 4325,2 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2018 yilning yanvar-martiga nisbatan 6,3 % ga o'sdi.

2019 yil yanvar-marti yakunlari bo'yicha aholi jon boshiga YaHM 2279,5 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 4,6 % ga o'sdi.


O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YaIM ni shakllantirishda Buxoro viloyatining qo'shgan hissasi 4,7 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM ni ishlab chiqarish

	Mlrd.so'm		2018 yil yanvar-martga nisbatan, % da
	2018 yil yanvar-mart	2019 yil yanvar-mart	
I. YaHM	3088,0	4325,2	106,3
<i>shu jumladan:</i>			
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	2798,0	3864,9	106,1
Mahsulotlarga sof soliqlar	290,0	460,3	108,1
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	2798,0	3864,9	106,1
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	814,6	985,4	103,0
Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	790,9	1364,0	108,8
sanoat	599,9	1094,3	101,7
qurilish	191,0	269,7	131,3
Xizmatlar	1192,5	1515,5	106,5
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	325,7	387,9	105,6
tashish va saqlash, axborot va aloqa	288,3	319,2	103,9
boshqa xizmat tarmoqlari	578,5	808,4	108,3

Hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlarida kuzatilgan o'sish sur'atlari YaHM o'sishida asosiy omil bo'lib xizmat qildi. Jumladan, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi tarmog'i - 103,0 %, (25,5 %), sanoat – 101,7 % (28,3 %), qurilish – 131,3 % (7,0 %), xizmatlar tarmog'ining o'sish sur'ati – 106,5 % (YaHM tarkibidagi ulushi – 39,2 %), ni tashkil etdi.

2019 yil yanvar - martda YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'sish sur'atlari




Iqtisodiy faoliyat turlari

Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YaQQ) hajmi umumiy YaHMning 89,4 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 10,6 % ini tashkil etdi.


Sanoat (qurilishni qo'shgan holda) tarmog'ining ulushi 7,1 % punktga oshdi va 35,3 % ni tashkil etdi. Xizmatlar sohasining YaHM tarkibidagi ulushi 39,2 % ni tashkil etdi va 2018 yil mos davri (42,7 %) bilan taqqoslanganda 3,5 % punktga kamaydi. Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi YaHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 3,6 % punktga kamaydi va hisobot yilida 25,5 % ni tashkil etdi.

Yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar bo'yicha tarkibi (jamiga nisbatan foizda)

2018 yil yanvar-mart



2019 yil yanvar-mart




- Mahsulotlarga sof soliqlar
- Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati
- Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi
- Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)
- Xizmatlar


Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning YaHM tarkibidagi ulushi 10,0 % ni (2018 yil yanvar-mart – 11,6 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa – 8,3 % ni (10,3 %), xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar – 20,9 % ni (20,8 %) tashkil etdi.

Xizmatlar sohasining yalpi qo'shilgan qiymati tarkibi (jamiga nisbatan foizda)

2018 yil yanvar-mart



2019 yil yanvar-mart



- savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar
- tashish va saqlash, axborot va aloqa
- xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar

Buxoro viloyat statistika boshqarmasi
Statistika faoliyatini tashkil etish
va yig'ma axborot-tahliliy ishlari bo'limi
Nashr uchun mas'ul: R.Usmanova
(0371) 230-82-98